

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.15/31.08.2022.T.73.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

AXMEDOV SARDORBЕК XURMATBEKOVICH

**YO‘L HAQI TARIFLARI VA POYEZDLAR HARAKAT GRAFIKLARINI
INTEGRASIYA QILISH ASOSIDA KONTREYLERLI TASHISHNI
TASHKIL ETISHNING ILMIY ASOSLARINI ISHLAB CHIQISH**

05.08.03 – Temir yo‘l transportini ishlatish

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Axmedov Sardorbek Xurmatbekovich

Yo‘l haqi tariflari va poyezdlar harakat grafiklarini integrasiya qilish asosida kontreylerli tashishni tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish 3

Ахмедов Сардорбек Хурматбекович

Разработка научных основ организации контрейлерных перевозок на основе интеграции тарифа провозных плат и графика движения поездов 21

Axmedov Sardorbek Xurmatbekovich

Development of scientific foundations for the organization of piggyback transportation based on the integration of freight tariffs and train schedules ... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.15/31.08.2022.T.73.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

AXMEDOV SARDORBЕК XURMATBEKOVICH

**YO‘L HAQI TARIFLARI VA POYEZDLAR HARAKAT GRAFIKLARINI
INTEGRASIYA QILISH ASOSIDA KONTREYLERLI TASHISHNI
TASHKIL ETISHNING ILMIY ASOSLARINI ISHLAB CHIQISH**

05.08.03 – Temir yo‘l transportini ishlatish

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/T5457 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muxamedova Ziyoda Gafurdjanovna
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Pokrovskaya Oksana Dmitriyevna
texnika fanlari doktori, dotsent

Merganov Avaz Mirsultanovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi PhD.15/31.08.2022.T.73.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 5-yanvar soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lchilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (300-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lchilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 22-dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 22-dekabrda 75-raqamli reyestr bayonnomasi).



J.F. Kurbanov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

Sh.M. Suyunbayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

M.X. Rasulov
Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy seminar raisi, texnika fanlari nomzodi, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiyaning dolzarbligi va zarurati. Dunyoda tarifkatsiyani va umumiy texnologiyani ishlab chiqishni hisobga olgan holda kontreylerli tashishlarni tashkil etishning ilmiy-uslubiy asoslarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Umumiy transport xizmatlarining 60 %, yuk aylanmasining 40 %, tashilayotgan yuklarning 98 % yer usti transportiga to'g'ri kelishini, shuningdek transport-ombor tarmog'ining YAIMdagi ulushi qariyb 6 foizni tashkil etishini hisobga olsak¹, temir yo'l va avtomobil transporti o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydigan innovatsion texnologiyalarni qo'llash zarurati yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan avtomobil transportining mavjud kamchiliklaridan samarali foydalanilgan holda, temir yo'lning o'ziga xos imkoniyatlaridan foydalanib kontreyler tashishlarini tashkil etish va rivojlantirish orqali jahon bozorlaridagi xalqaro transport aloqalarini yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda transport turlarining o'zaro hamkorligini ta'minlaydigan yangi texnologiyalarni qo'llash, istiqboldagi marshrutlarni aniqlash, multimodal yo'nalishlar bo'yicha yuk tashishlarni tashkil etish, transportning servis imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tashishlarni rivojlantirish, stansiyalarning o'tkazuvchanlik qobiliyatidan samarali foydalanish, logistik xizmat bozori uchun qulay bo'lgan yuk majmualari va yangi terminallarni loyihalash kabi masalalarni yechishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu sababli avtomobil va temir yo'l transportida mavjud muammolarning eng yaxshi yechimi sifatida temir yo'l transportida kontreylerli tashishlarni qo'llash bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, transport sohasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, xususan multimodal tashishlar hisobiga temir yo'l transporti yuk aylanmasini yanada oshirish hamda yuklarni ortiqcha qayta yuklashsiz, shikastlanmasdan, ekologik xavfsiz va o'z vaqtida "eshikdan eshikkacha" yetkazib berishni tashkil etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizda temir yo'l infratuzilmasini yaxshilash, yuk oqimlarini oshirish va yuk tashishlarning yangi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash hisobiga yuklarni sifatini o'zgartirmagan holda jahon bozoriga yetkazib berish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "...barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, ...infratuzilma, transport va logistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, ...transport tizimida "yashil yo'laklarni" va transport imkoniyatlarini kengaytirish, transport, energetika, savdo-iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi yaqin hamkorlikni yuqori darajaga ko'tarish"² bo'yicha muhim maqsadlar belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan, xususan ushbu masalalarni yechishda yuklarni multimodal tashishlarda yer usti transport turlarini o'zaro bog'lash orqali jo'nash nuqtasidan yetib kelish nuqtasigacha yuklarni yetkazib berish uchun umumiy texnologiya va tarifkatsiyani ishlab chiqishni hisobga olgan holda, kontreylerli

¹ <https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/18273-transport-xizmatlari-umumiy-hajmida-avtomobil-transporti-xizmatlarining-ulushi-qancha-3>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni

tashishlarni tashkil etishning ilmiy-uslubiy asoslarini rivojlantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “‘‘Raqamli O‘zbekiston – 2030’’ strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi PF-6079-sonli, 2022-yil 9-sentabrdagi “Energiya tejevchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida’’gi PF-220-sonli Farmonlari, 2022-yil 6-iyuldagi “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida’’gi PQ-307-sonli, 2023-yil 10-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi PQ-329-sonli, 2025-yil 27-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi PQ-28-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turli transport turlarida tashish texnologiyasining o‘zaro hamkorligi sohasidagi muammolarni tadqiq etish ishlari dunyoning yetakchi mamlakatlarining ilmiy-tadqiqot markazlari, universitet va institutlari, jumladan Massachusetts Institute of Technology (AQSh), Newcastle Centre for Railway Research University (Buyuk Britaniya), Beijing Jiaotong University, “Szyao Tong” Shanxay universiteti (Xitoy), Ecole des Ponts ParisTech (Fransiya), Technische Universitat Carolo-Wilhelmina zu Braunschweig (Germaniya), Transport Research Institute (Litva), Aleksandr I nomidagi Peterburg davlat temir yo‘l universiteti, Rostov davlat temir yo‘l universiteti (Rossiya), Abilkas Saginov nomidagi Qarag‘anda texnika universiteti (Qozog‘iston), Toshkent davlat transport universitetida (O‘zbekiston) olib borilmoqda.

Kontreylerli tashishlarni tashkil etish va takomillashtirish, temir yo‘l transportida yuklarni yetkazib berishning umumiy texnologiyasi, shuningdek tashish jarayoni ishtirokchilarning o‘zaro hamkorligidagi tarifkatsiyani ishlab chiqish masalalari bilan bir qator xorijiy olimlar shug‘ullanganlar, jumladan, Olli-Pekka Hilmola, Zhang, Heinold, Meisel, Negenborn, Kurhan, Cerniauskaite, Xia, Zhu, Wang, Bowser, L. Kukla, A.N. Raxmangulov, Y.A. Chebotareva, P.V. Kurenkov, I.A. Solop, O.D. Pokrovskaya, Yu.N. Panova, V. Shekoldin va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasida kontreylerli tashishlar texnologiyasini takomillashtirish tadqiqotlari, tarifkatsiyani ishlab chiqish, shuningdek avtomobil va magistral temir yo‘l transportining o‘zaro hamkorlik tamoyillari va ularning ilmiy asoslanganligi bir qator mahalliy olimlarning, jumladan E.T. To‘ychiyev, S.M. Djumabayev, M.X. Rasulov, J.R. Qobulov, Z.G. Adilova, Sh.M. Suyunbayev, D.I. Ilesaliyev, A.A. Svetashev, M.A. Xadjimuxametova, D.Sh. Boboyev va

boshqalar ilmiy ishlarida bayon etilgan.

Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarda kontreylerli tashishlarni tashkil etilishining ilmiy asoslari, xususan tarifkatsiya va umumiy texnologiyasini ishlab chiqish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Shunday qilib, yuklarni bir transport turidan boshqa transport turiga qayta ortishda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliy qo'llash bo'yicha tadqiqotlarni olib borish dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq "O'ztemiryo'lkonteyner" AJ bilan temir yo'l transportida jo'natma turlari bo'yicha (konteyner va kontreyler) mijozlarga samarali xizmat ko'rsatish texnologiyasini tashkil etish" mavzusidagi 45-sonli (2025-yil) xo'jalik shartnomasi va "Yer usti transportining o'zaro hamkorligida xavfsizlik shartlarini hisobga olgan holda innovatsion mahkamlash vositalarini yaratish hisobiga temir yo'l transportining yuk oqimlarini oshirish" mavzusidagi AL-8624042442-sonli (2025-2026-yillar) davlat granti doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yo'l haqi tariflari va poyezdlar harakat grafiklarini integratsiyalash asosida kontreylerli tashishni tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

temir yo'l transportining infratuzilmaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda kontreylerli tashishlarni tashkil etishning xalqaro tajribasi va ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish;

transport-logistik tizim va poyezdlar harakati grafigini tadqiq etish asosida kontreylerli poyezdlarning sinov marshrutini tashkil etish metodikasini takomillashtirish;

yetkazib berish zanjirida texnik va texnologik amallarning senariylarini modellashtirish asosida temir yo'lning ochiq harakat tarkibida treylerlarni tashish texnologiyasini mavjud infratuzilmaga moslagan holda ishlab chiqish;

transport infratuzilmasining yuklamasi, platforma turi, yuk massasi, marshrut masofasini hisobga olgan holda kontreylerli poyezdlar tarifini hisoblashning matematik modelini ishlab chiqish;

kontreylerli tarkiblarning ortish-tushirish ishlarini tashkil etish uchun temir yo'l stansiyalarining infratuzilmaviy imkoniyatlarini baholash metodikasini ishlab chiqish;

mavjud transport tizimiga kontreylerli terminallarni integratsiyalash bo'yicha amaliy tavsiyalarni shakllantirish va tashishlarning mahalliy sharoitlarini hisobga olgan holda kontreylerli poyezdlarni joriy etishning yo'l xaritasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti kontreylerli tashishlarni tashkil etish jarayonlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti kontreylerli tashishlarni rejalashtirish va optimallashtirish bo'yicha logistik va texnologik yechimlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qaror qabul qilish

usullari, matematik modellashtirish, shuningdek Vald, Laplas va Sevidj mezonlari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

temir yo'l infratuzilmasining o'tkazuvchanlik qobiliyatini hisobga olgan holda harakat grafigining optimal chizig'ini tanlash asosida kontreylerli poyezdlarning sinov marshrutini shakllantirish metodikasi takomillashtirilgan;

yetkazib berish zanjirida texnik va texnologik amallarni mavjud infratuzilmaga moslashtirish asosida temir yo'l ochiq harakatlanuvchi tarkibida treylerlarni tashish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

marshrutlarni rejalashtirish turlari kesimidagi differensiyalashgan tariflar orqali mijozlarning jozibadorligini oshirish imkonini beruvchi temir yo'l transporti tizimida kontreylerli tashishlarni tarifkatsiyalash modeli ilk bor ishlab chiqilgan;

treylerni ortish va tushirishni tashkil etish uchun terminalning kontreylerli tarkiblarga xizmat ko'rsatish tayyorligini aniqlashga imkon beradigan temir yo'l stansiyalarning infratuzilmaviy imkoniyatlarini baholash metodikasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

transport vositalarining turib qolish vaqtini kamaytirish va texnologik amallarni bajarilishining uzviyligini oshirishga qaratilgan, avtotransport vositalarini joylashtirish va qayta ishlashni aniqlashga doir dasturiy ta'minotni o'z ichiga olgan, temir yo'l transportida kontreylerli tashishlarning texnologiyasini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

infratuzilmani tayyorlash, ustuvor marshrutlar va stansiyalarni aniqlash bo'yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlarning ketma-ketligini o'z ichiga olgan, temir yo'l tarmog'ida kontreylerli tashishlar texnologiyasini joriy etishning yo'l xaritasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tekshirilgan nazariy yondashuvlar va asoslangan amaliy usullarning qo'llanilishi bilan ta'minlanadi. Barcha hisoblar va xulosalar Toshkent – Buxoro sinov marshrutidagi kontreylerli tashishlarning parametrlari va stansiyalarning o'tkazuvchanlik qobiliyati, yuk oqimlarining mavjud statistik ma'lumotlariga tayangan. Tizimli tahlil usuli, regressiv modellashtirish, shuningdek Vald, Laplas va Sevidj mezonlarining qo'llanilishi tashishlarni rejalashtirishning turli senariylarida barqaror natijalarni olish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kontreylerli tashishlarning namunaviy texnologiyasining ishlab chiqilganligi, asosiy ekspluatatsion omillarni hisobga olgan holda tarifkatsiyalash modelining shakllantirilganligi, shuningdek temir yo'l infratuzilmasi sharoitida kontreylerli texnologiyalarni joriy etishga doir muhim yechimlarning asoslanganligi bilan izohlanadi. Ishlab chiqilgan modellar tashish jarayonining texnologik parametrlari va multimodal logistik zanjirlari fadiyatining samaradorligi o'rtasida o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati texnologik amallar bir maromda bajarilishini ta'minlash va harakatlanuvchi tarkibning turib qolish vaqtini qisqartirish imkonini beruvchi kontreylerli tashishlarni tashkil etishning unifikatsiyalashgan

tizimining yaratilganligi, shuningdek milliy transport tarmog'ining o'ziga xosligini inobatga olgan holda, xarajatlarni rejalashtirishda qo'llash uchun yaroqli bo'lgan tarifkatsiyaning moslashuvchan modelining shakllantirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Tashish tariflari va poyezdlar harakat grafigini integratsiyalash asosida kontreylerli tashishlarni tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

temir yo'l infratuzilmasining o'tkazuvchanlik qobiliyatini hisobga olgan holda kontreylerli poyezdlarning sinov marshrutlarini shakllantirish metodikasi, yetkazib berish zanjirida texnik va texnologik amallarni mavjud infratuzilmaga moslashtirish asosida temir yo'l harakatlanuvchi tarkibida treylerlarni tashish texnologiyasi hamda "Transport tizimida kontreyler tashishlarini rejalashtirish" instrumental vositasi "Temir yo'l infratuzilma" AJning "Toshkent mintaqaviy uzeli" filialida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025-yil 31-iyuldagi 4/E1028-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Toshkent – Buxoro sinov marshrutida barqaror ishni ta'minlash, o'z vaqtida jo'natilmagan jo'natmalarning sonini 21% kamaytirish, shuningdek rejalashtirishning avtomatlashtirilishi, stansiyalar va terminallarning o'zaro hamkorligini muvofiqlashtirish orqali logistik hisoblarning aniqligini 17% oshirishga erishilgan;

temir yo'l transporti tizimida kontreylerli tashishlarning tarifkatsiya modeli, treylerlarni ortish va tushirishni tashkil etish uchun temir yo'l stansiyalarning infratuzilmaviy imkoniyatlarini baholash metodikasi, shuningdek temir yo'l tarmog'ida kontreylerli tashishlar texnologiyasining yo'l xaritasi "O'ztemiryo'lkonteyner" AJda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025-yil 31-iyuldagi 4/E1028-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Toshkent stansiyasida kontreylerli poyezdlarga ishlov berishning o'rtacha vaqti 23% qisqargan, bir maromda jo'natiladigan tarkiblar soni esa 18% ko'paygan. Namunaviy texnologiyani qo'llash hisobiga ortish-tushirish jarayonini bo'g'inlarining bir maromda ishlasi ta'minlangan va platformalar aylanmasi oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan 3 ta xalqaro (shundan 1 ta *Scopus* bazasiga kiruvchi to'plamda) va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shulardan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 7 ta, jumladan 3 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda maqolalar chop etilgan hamda 1 ta EHM dasturiga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy qismi 112 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zarurati asoslangan, O'zbekiston Respublikasining fan va texnika rivojlanish ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi bayon etilgan, uning obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning

maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, asosiy natijalar va ilmiy yangiligi bayon etilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, shuningdek chop etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kontreylerli tashishlarning nazariy asoslari va ularning transport tizimi uchun ahamiyati”** nomli birinchi bobida kontreylerli tashishlarning zamonaviy holati va ulardan foydalanishning samaradorligi, bunday tashishlarni rivojlantirishdagi asosiy to'siqlar o'rganilgan, temir yo'l transportida yuklarni tashish jarayoniga kontreylerli texnologiyalarni joriy etishning xorijiy tajribasi, shuningdek O'zbekistonning temir yo'l tarmog'ida kontreylerli tashishlarning iqtisodiy va ekologik afzalliklari hamda transport-logistik tizimini optimallashtirish masalasi tadqiq etilgan.

“O'zbekiston temir yo'llari” AJning zamonaviy holatining tahlili temir yo'lda yuklarni tashish bozori infratuzilmasining rivojlanish sharoitida kontreylerli tashishlar texnologiyasining rivojlanishida yuklarni tashish uchun temir yo'llar potensial raqobatdosh ekanligini ko'rsatgan.



1-rasm. Tahlil qilingan tadqiqotlarda qatnashgan davlatlar taqsimlanishi

1-rasmda kontreylerli tashishlarni tadqiq etishda qatnashgan davlatlarning taqsimoti ko'rsatilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, birinchi o'rinda 34% ko'rsatkich bilan Xitoy va Rossiya, keyingi bosqichda 8% ko'rsatkich bilan Germaniya, O'zbekiston va AQSh turibdi, bir nechta davlatlarning birlashgan ulushi ham 8% tashkil etadi. Shuningdek O'zbekiston konteyner terminallarida bir nechta kontreyler maydonlarini yaratish bo'yicha investitsiya qilmoqda, bu esa o'z navbatida respublika hududida bunday tashishlarni tashkil etishda ilmiy-uslubiy asoslarni ishlab chiqish zaruratini ko'rsatmoqda.

Bajarilgan tahlil asosida respublikaning logistik tizimining o'ziga xosligini hisobga olgan holda kontreylerli tashishlarni joriy etishni modellashtirish va bashoratlashga ilmiy-amaliy yondashuvni shakllantirish zarurati asoslangan. Bu esa infratuzilmaning potentsiali, tashkiliy-huquqiy shartlari va iqtisodiy ko'rsatkichlarni kompleks baholashni talab etadi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonning transport-logistik tizimini tadqiq etish va kontreylerli poyezdlarning harakat grafigini ishlab chiqish”** nomli ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasi temir yo'l infratuzilmasining holati va rivojlanish istiqbollari

tadqiq etilgan, shuningdek O‘zbekiston strategik muhim geografik joylashganligi sababli xalqaro logistikada tranzit uzal sifatida mamlakatning potentsiali tahlil qilingan hamda Toshkent – Buxoro temir yo‘l uchastkasi misolida kontreylerli poyezdlarning harakat grafigini ishlab chiqish va marshrutini asoslash ishlari amalga oshirilgan.

Toshkent – Buxoro temir yo‘l uchastkasida poyezdlar harakati grafigini tadqiq etish natijalari ushbu uchastkaning yillik kontreyler aylanmasi 168 ming ta ekanligini ko‘rsatgan. Ushbu hisoblar tanlangan yo‘nalishdagi avtotashishlarning umumiy solishtirilishi asosida bajarilgan bo‘lib, bir yilda 940 ming tonnani tashkil etadi. Natijada avtomobil tashishlarning bir qismi temir yo‘l transportiga o‘tishi jarayonida mavjud avtotransport tashishlarining 17-18% atrofidagi qismini temir yo‘lga taqsimlash imkoniyati aniqlangan. Shuningdek, kontreylerli poyezdlarni joriy etish uchun harakat grafigining yuk oqimiga va logistik samaradorligiga bo‘lgan ta‘siri baholangan. Ularning potentsialini baholash uchun stansiyalar unumdorligining tahlili va kontreylerli poyezdlarga xizmat ko‘rsatishni vaqtinchalik parametrlarining hisobi bajarilgan.

Natijada bitta kontreylerli poyezdga qayta ishlov berishning minimal vaqti 154 daqiqani tashkil etishi aniqlangan. Ushbu ma‘lumotlar asosida Monte-Karlo usulini qo‘llagan holda harakatlarning notekisligini hisobga olib bir sutka davomida qabul qilingan va jo‘natiladigan poyezdlar orasidagi intervallar modellashtirilgan. Harakat grafigining yuk oqimiga va logistik samaradorlikka bo‘lgan ta‘sirini baholash uchun yetkazib berishning 3 ta turi kesimida 40 futli konteynerning tashilishi hisoblangan (1-jadval).

1-jadval

40 futli konteynerni yetkazib berishning uchta turi kesimida tashishning hisobi

T/r	Tashish turi	Bir km uchun tarif, AQSH dollari	Tashish haqi, AQSH dollari	Yetkazib berish tezligi, km/s	Yetkazib berish vaqti, s
1.	Kontreylerli tashish	0,5	312	26	24
2.	Temir yo‘lda tashish	0,45	280	17	37
3.	Avtomobilda tashish	2,4	1495	32	19

Ikkita (tashish haqi va sarflangan vaqt) omillarini solishtirish uchun ularning keltirilgan qiymatlari hisoblangan (2-jadval).

2-jadval


Kontreylerli tashishlarda ikkita (tashish haqi va sarflangan vaqt) omillarning keltirilgan qiymatlarning hisobi

T/r	Nomlanishi	Tashish haqi, AQSH dollar	Yetkazib berish vaqti, s	Keltirilgan qiymatlar	
				Tashish haqi	Yetkazib berish vaqti
1.	Kontreylerli tashish	312	24	0,21	0,65
2.	Temir yo‘lda tashish	280	37	0,19	1,00
3.	Avtomobilda tashish	1495	19	1,00	0,53
4.	Maksimal qiymat	1495	37	1,00	1,00

Keltirilgan tariflar, tashish haqi va yetkazib berish tezligi turli transportlarda 40 futli konteynerni tajribaviy tashish natijalarida olingan mavjud ishlab chiqarish ma‘lumotlari asosida hisoblangan.

Dissertatsiyaning “**Temir yo‘l transporti uchun tarifkatsiyalash modeli va kontreylerli tashishlarning umumiy texnologiyasini ishlab chiqish**” nomli uchinchi bobida kontreylerli tashishlar umumiy texnologiyasining konsepsiyasi berilgan, temir yo‘l transporti tizimida tarifkatsiyalash modeli ishlab chiqilgan, Vald, Sevidj va Laplas mezonlari bo‘yicha Toshkent – Buxoro marshruti bo‘ylab tashish turlari kesimida samaradorlikni baholash amalga oshirilgan, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ sharoitida texnologiya va tarifkatsiyasini joriy etish ssenariylari modellashtirilgan.


Kontreyler tashishlari kontsepsiyasini tahlil qilishda ularni tashkil etishga bosqichma-bosqich yondashuv taklif qilingan, unga stansiyalar va terminallar infratuzilmasini rivojlantirish, zarur texnik jihozlar bilan ta‘minlash, so‘ngra jarayonlarni tezlashtirish va xarajatlarni kamaytirish maqsadidagi marshrut sxemalarini optimallashtirish kiradi. Bir nechta bosqichdan iborat bo‘lgan kontreylerli tashishlar texnologiyasi sxematik tarzda 2-4-rasmlarda ko‘rsatilgan.



2-rasm. Kontreylerli tashishlar texnologiyasining umumiy sxemasi




3-rasm. Yuklarni temir yo‘lda tashishga tayyorlash



4-rasm. Yuklarni yetib kelishi va tushirish

Temir yo‘l tizimida kontreylerli tashishlarning tarifkatsiyalash modelini ishlab chiqish, marshrutlarni rejalashtirish turi kesimida differensiyalashgan tashish kira haqlarining hisobiga mijozlarning jozibadorligini oshirishiga imkon beradi. Tadqiqot doirasida tariflar tarifkatsiyalash modellari bo‘yicha xarajatlar usulida hisoblangan. Natijalarni aniq taqdim etish uchun barcha xarajatlar ulushi grafik ko‘rinishida keltirilgan (5-rasm).



5-rasm. Bir km masofaga bir tonna yukni kontreylerli poyezdda tashishda xarajatlarning ulushi

Bir km masofaga avtopoyezdni tashish uchun umumiy tarif quyidagi formula orqali aniqlangan:

$$T = T_y + T_p = (V_g + V_p) \cdot 247, \text{ so'm/t-km} \quad (1)$$

Mijozlar uchun jozibadorlikni oshirish maqsadida tarifning 3 ta turini belgilash lozim. Bunda quyidagi tomonlari bilan ajralib turadi: yukning og'irligi bo'yicha olinadigan avtopoyezd og'irligi uchun undiriladigan kira haqi (umumiy tarif), avtopoyezdning og'irligi uchun undiriladigan kira haqi yarim marjinallik bo'ladi (kamaytirilgan tarif), avtopoyezdning og'irligi uchun undiriladigan kira haqi tannarxi bo'yicha olinadi (minimal tarif).

Omillarning o'zaro ta'sirini baholash uchun xavfli va noaniqlik sharoitlarda qarorlarni qabul qilishda ma'lum bo'lgan Laplas, Vald va Sevidj mezonlari qo'llanilgan. Laplas mezonlari, tashqi shartlarni barcha variantlarining ehtimolligi teng bo'lishini faraz qilishda qo'llanilgan. Har bir yechim uchun tashqi shartlarning barcha variantlari bo'yicha o'rtacha bahosi hisoblangan (o'rtacha yutuq):

$$E(x_i) = \frac{1}{N} \sum_{j=1}^n (E_{mn} \cdot P(B_j|A_i)), \text{ so'm.} \quad (2)$$

Vald mezonlari eng noqulay tashqi sharoitlar uchun tanlangan. Tabiat holatining ehtimolligi noaniq va ular to'g'risida biror statistik ma'lumotni olish uchun imkoniyat mavjud emas. Har bir yechimni baholash sifatida ushbu yechimni tanlashda olish mumkin bo'lgan minimal yutuqlar qo'llanilgan:

$$E(x_i) = \min(E_{mn}), \text{ so'm.} \quad (3)$$

Laplas va Vald mezonlari bo'yicha tariflar turini baholash uchun tarif qiymati (jalb etiladigan mijozlarning soniga teskari bo'lgan) va daromad omillari bo'yicha keltirilgan daromadlarning matritsasi qurilgan. Sevidj mezoni uchun keltirilgan daromadning matritsasi o'rniga 3- va 4-jadvalda keltirilgan risk matritsasi hisoblangan.

3-jadval

Tarif qiymati bo'yicha keltirilgan daromadlar matritsasi

T/r	Tarif turi	Tarif, so'm	Daromad, so'm	Mijozlar uchun jozibadorlik	Daromadlilik
1	Umumiy	9386	1731	0,00	1,00
2	Kamaytirigan	9050	1412	0,04	0,82
3	Minimal	8731	1093	0,07	0,63
Maksimal qiymat		9386	1731	–	–

4-jadval

Tarif qiymati bo'yicha xavf matritsasi


T/r	Tarif turi	Tarif, so'm	Daromad, so'm	Mijozlarni yo'qotish xavfi	Daromadni olmaslik xavfi
1	Umumiy	9386	1731	1,00	0,00
2	Kamaytirigan	9050	1412	0,96	0,18
3	Minimal	8731	1093	0,93	0,37
Maksimal qiymat		9386	1731	1,00	0,37

Taklif etilgan model asosida bir tonna uchun marshrut uzunligiga va harakat tarkibining yuklanishiga bog'liq holda 47,8 ming so'mdan 56,2 ming so'mgacha tarif

diapazoni ishlab chiqilgan. Rag‘batlantirish tarif mexanizmining asoslanishi platformalardan foydalanish koeffitsiyentini oshirishdagi tannarxni optimallashtirish tamoyilida asoslangan. Platformaning yuklanganligi 80% dan oshganda, bir tonna tashilayotgan yukka doimiy xarajatlarning ulushi kamayadi, bu esa asosiy tarif darajasidan 7-9% ga stavkani pasaytirish imkonini beradi va rentabellikni yo‘qotmaslikni ta‘minlaydi.


Bunday yondashuv operatorlarni harakat tarkibining yuk ko‘tarish qobiliyatidan maksimal foydalanishga undaydi va umumiy tarzda kontreylerli tashishlarning samaradorligini oshiradi. Misol sifatida 24 tonna yukning Toshkent – Buxoro marshruti (“Makon 1520” loyiha doirasida kontreylerli tashishlarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha bosh loyiha hisoblanadi) bo‘ylab harakatlanishi ko‘rib chiqilgan. Punktlar orasidagi masofa temir yo‘l transporti uchun 623 km, avtomobil transporti uchun esa 581 km tashkil etadi. 24 tonna yuk temir yo‘l bo‘ylab 40 futli konteynerda tashiladi. Avtomobildagi tashish kontreylerda amalga oshiriladi. Temir yo‘l bo‘ylab yetkazib berishning yuk tezligi 15 km/s tashkil etadi (sutkada o‘rtacha yurishni hisobga olgan holda). Avtomobil orqali yetkazib berishda sutkada o‘rtacha yurish tezligini hisobga olgan holda 30 km/s tashkil etadi.

Yetkazib berishning samarali turini baholash uchun keltirilgan baho va yetkazib berish vaqtining matritsasiga tayangan holda Vald, Sevidj va Laplas mezonlari qo‘llanilgan. Uchta mezonning ikkitasida kontreylerli tashishlar yetkazib berishning eng optimal variantlari ekanligi ko‘rsatilgan (6-rasm).




6-rasm. Tashish turlari kesimida Toshkent – Buxoro marshruti bo‘yicha kira haqi va vaqti

Modellashtirish uchun bir yil davomida temir yo‘l ($T_{sr}=102\%$) va avtomobil ($T_{sr}=106\%$) transportida tashiladigan yuklarning o‘rish sur‘atining o‘rtacha qiymati kerak bo‘ladi. Modellashtirishning umumiy algoritmi 7-rasmda keltirilgan. Ushbu model OS Linux da Octave tilida tuzilgan (Windows uchun MATLABning to‘liq moslashgan analogi). Integratsiya soni 100 ga teng bo‘lgan holat uchun tegishli hajmining grafigi 8-rasmda keltirilgan.




7-rasm. Modellashtirish algoritmining sxemasi


Octave dasturiy muhitida tuzilgan grafiklar yetarli darajada aniq bo'lmaganligi sababli, qiymatlari ko'rsatilgan holda ularning nusxalari yaratilgan (8-11 rasmlar).




8-rasm. 2023–2035-yillarda temir yo‘l transportida yuk tashishlar hajmi, mln.t



9-rasm. 2023–2035-yillarda avtomobil transportida yuk tashishlar hajmi, mln.t



10-rasm. 2023–2035-yillarda kontreynerli yuk tashishlar hajmi, mln.t




11-rasm. 2023–2035-yillarda kontreynerli infratuzilmaga kapital mablag‘ sarfining miqdori, mln. euro


O‘zbekiston sharoitida texnologiyani va tarifkatsiyani joriy etish modellashtirilgan ssenariylarining uchta turi aniqlangan: konservativ, optimistik va modernizatsiyalashgan. 3 ta sinov marshrutni o‘z ichiga olgan, yuklanishi 70 % dan ko‘p bo‘lgan, tashish hajmi 2,4 mln. tonn/yil va har yili kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 21 mlrd. so‘mdan ko‘p bo‘lgan optimistik ssenariy eng realistik deb topilgan. Investitsiyali mexanizmni tarif siyosati bilan muvofiqlashtirish muvaffaqiyatli joriy etishning asosiy shartlaridan bir ekanligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning “**Kontreynerli tashishlarni joriy etishni iqtisodiy-ekologik baholash va modelning ishonchliligi**” nomli to‘rtinchi bobida Toshkent – Buxoro marshrutida kontreynerli texnologiyalarni joriy etilishining iqtisodiy samaradorligini baholash amalga oshirilgan. Ishlab chiqilgan modellarning ishonchliligini baholash va kontreynerli tarmoqni rivojlantirish uchun birinchi navbatda mavjud temir yo‘l stansiyalarida kontreynerli terminallarning samarali joylashuvini tanlash masalasi yechilgan.


Logit modelini qurish uchun boshlang‘ich ma’lumotlar sifatida “Temir yo‘l infratuzilma” AJning “Toshkent mintaqaviy uzeli” filiali 46 ta temir yo‘l stansiyalarining tavsifi qo‘llanilgan. Modellashtirishning natijalari 12-15 rasmlarda grafik ko‘rinishida keltirilgan.




12-rasm. Y ning kuzatiladigan va hisobiy qiymatlari (ikkilik o‘zgaruvchi)



13-rasm. RP ga bog‘liq ravishda Y ning kuzatiladigan va hisobiy qiymatlari (vagonlarning ishchi parki)



14-rasm. PVP ga bog‘liq ravishda Y ning kuzatiladigan va hisobiy qiymatlari (yuklarni ortish rejasi)



15-rasm. Normal taqsimlashning kvantillari (modelning adekvatligi)

Ishlab chiqilgan logit-model kontreylerli terminallarni joylashtirishda taklif etilgan yondashuvning ishonchligini tasdiqlash imkoniyatini bergan. Bunda

yechimlarning to‘g‘ri bashoratlanish ulushi 93 % ni tashkil etgan, $r=0,76$ ga teng bo‘lgan korrelyatsiya koeffitsiyenti kuzatilayotgan va hisoblangan ma‘lumotlar o‘rtasida yuqori bog‘liqlik borligidan dalolat bergan. Terminallarni joylashtirish uchun optimal stansiyalar sifatida Chuqursoy, Sergeli va Angren olingan. Tarifni qo‘llab-quvvatlash va tashish hajmining doimiy yiliga 2,5 mln. t ta‘minlanishi holatida loyihaning o‘zini-o‘zi oqlash muddati 5-6 yilni tashkil etgan.

Toshkent – Buxoro yo‘nalishida kontreyler tashishlarini sinov tarzida joriy etish bo‘yicha texnik-iqtisodiy asoslash marshrut uzunligi, infratuzilma parametrlari, platformalar turlari va logistika sharoitlari hisobga olingan holda bajarildi. Loyiha samaradorligi hisoblab chiqilgan va natijalar jadval ko‘rinishida keltirilgan (5-jadval).


5-jadval

Loyiha samaradorligining tavsiflari

T/r	Tavsifi	O‘lchov birligi	Qiymati	Izoh
1.	NPV	mln. so‘m	13303	Sof keltirilgan daromad
2.	PI	-	1,29	Daromad indeksi
3.	IRR	%	7,49	Daromadning ichki me‘yori
4.	PP	yil	2,65	O‘zini oqlash davri
5.	DPP	yil	4,33	O‘zini oqlashning diskontli davri
6.	ARR	%	56,51	Investitsiyalarning sodda rentabelligi

Daromadni hisoblash uchun kamaytirilgan tarif o‘rniga minimal tarif olinsa, bu holda loyiha 10 yilda 4146 mln. so‘mni, o‘zini oqlash muddati esa 8,68 yilni tashkil etadi. Daromad o‘zgarishida loyihaning o‘zini oqlash muddati ham o‘zgaradi (16-rasm).

Iqtisodiy samaradorlikning hisobi shuni ko‘rsatadiki, kontreylerli tashishlarning taklif etilgan texnologiyasi sof keltirilgan daromadning ($NPV=13$ mlrd. so‘m) qiymatini ijobiy saqlanishida va o‘zini oqlash muddati 5-6 yil tashkil etganda, 26,17 mlrd. so‘m yillik iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlaydi. Bu esa O‘zbekistonning transport tizimida ushbu loyihani amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.



16-rasm. Tariflar o‘zgarishida loyiha asosiy tavsiflarining sezgirlik grafigi

Hududda kontreylerli tashishlarga bo‘lgan talabning potensial baholanishini hisobga olgan holda, kontreylerli texnologiyalarni joriy etilishida 8 ta bosqichdan tashkil topgan yo‘l xaritasi ishlab chiqilgan. Bularni amalga oshirish uchun tadqiqot natijalari bo‘yicha aniq bosqichlarni bajarish uchun samaradorlikni oshirish imkoniyatini beruvchi aniq yondashuvlar taklif etilgan.

XULOSA

“Yo‘l haqi tariflari va poyezdlar harakat grafiklarini integrasiya qilish asosida kontreylerli tashishni tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” mavzusiga texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining tadqiqot natijalari bo‘yicha quyidagi xulosa olingan:

1. Ilmiy ishlar, xalqaro tajriba va me‘yoriy-strategik hujjatlarni tahlil qilish natijalari kontreylerli tashishlarni tashkil etishda zamonaviy yondashuvlarni tizimlashtirish va O‘zbekiston Respublikasining transport tizimi uchun uning dolzarbligini isbotlash imkoniyatini bergan. Kontreyler tashishlarini rivojlantirish logistikaning barqarorligini oshirishga, avtomobil yo‘llaridagi yuklamani kamaytirishga hamda ekologik ko‘rsatkichlarni yaxshilashga xizmat qilishi aniqlangan. Temir yo‘l infratuzilmasi holatini baholash stansiyalarni modernizatsiyalash va poyezdlar harakati grafigini takomillashtirish sharoitida ushbu texnologiyani joriy etish uchun yetarli potensialning mavjudligini ko‘rsatgan.

2. Bir yilda 16,8 ming kontreylerlarni tashish imkonini beradigan Toshkent – Buxoro sinov marshruti taklif etilgan. Bunda hisoblar ushbu yo‘nalishdagi kontreylerli tarkiblarning potensial hajmi bo‘yicha (bir yilda 940 000 ta) umumiy yillik avtomobil tashishlarni solishtirishga asoslangan. Avtomobil yuklarining 17-18% temir yo‘l transportiga qayta taqsimlanishi avtomobil yo‘llariga bo‘lgan yuklamani kamaytirish va magistrallarning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

3. Texnik va texnologik amallarning mavjud infratuzilmaga moslashuviga asoslangan temir yo‘l harakatlanuvchi tarkibida treylerlarni tashish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Natijada texnologik amallar, ekspluatatsion parametrlar aniqlanib, bir kontreyler poyezdiga xizmat ko‘rsatishning hisobiy vaqti 154 daqiqani tashkil etgan, bu esa tashish jarayoni ishtirokchilarining muvofiqlashtirilgan hamkorligini ta‘minlaydi.

4. Ilk marotaba infratuzilmaning yuklanganlik darajasi, platforma turi, yuk massasi, marshrut uzunligini inobatga oladigan kontreylerli tashishlarning tarifkatsiya modeli ishlab chiqilgan. Natijada asosiy tarif darajasi 47,8-56,2 ming so‘m/tonna diapazonida belgilangan, bu umumiy logistika xarajatlarini 18,5% gacha kamaytirish va yuk jo‘natuvchilar uchun differentsial tariflar hisobiga xizmatning jozibadorligini oshirishga imkon beradi.

5. Kontreyl tashishlarni tashkil etish uchun temir yo‘l stansiyalarning infratuzilmaviy imkoniyatlarini baholash metodikasi ishlab chiqilgan. Qurilgan logit-model asosida kontreylerli terminallarni joylashtirishda taklif etilgan yondashuvning ishonchligi statistik tasdiqlangan: bashorat etilgan yechimlarning ulushi 93% ni tashkil etgan, korrelyatsiya koeffitsienti $r=0,76$ tashkil etishi

kuzatilayotgan va hisobiy ma'lumotlar orasida katta bog'liqlik borligini ko'rsatgan, eng optimal stansiyalar sifatida Chuqursoy, Sergeli va Angren tavsiya etilgan.

6. Foydalanish amaliyotiga texnologiyalarni integratsiyalash bosqichlari, ustuvor marshrut va stansiyalarning tanlanishi, infratuzilmani modernizatsiyalash bo'yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlar ketma-ketligini nazarda tutadigan dasturiy mahsulot va yo'l xaritasini o'z ichina olgan, temir yo'lda kontreyerli tashishlar texnologiyasini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijada kontreyerlarni qayta ishlash vaqtini qisqartirish, terminal tarmog'idan foydalanishning samaradorligini oshirish, shuningdek temir yo'l va avtomobil transportining o'zaro hamkorligini barqarorlashtirish imkoniyati paydo bo'lgan. Taklif etilgan chora-tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi bir yilda 26,17 mlrd. so'mni, o'zini oqlash muddati 5-6 yilni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.15/31.08.2022.Т.73.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ТРАНСПОРТНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

АХМЕДОВ САРДОРБЕК ХУРМАТБЕКОВИЧ

**РАЗРАБОТКА НАУЧНЫХ ОСНОВ ОРГАНИЗАЦИИ
КОНТРЕЙЛЕРНЫХ ПЕРЕВОЗОК НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ
ТАРИФА ПРОВОЗНЫХ ПЛАТ И ГРАФИКА ДВИЖЕНИЯ ПОЕЗДОВ**

05.08.03 – Эксплуатация железнодорожного транспорта

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №В2025.1.PhD/Т5457.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного Совета (www.tstu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Мухамедова Зиёда Гафурджановна
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: Покровская Оксана Дмитриевна
доктор технических наук, доцент
Мерганов Аваз Мирсултанович
доктор философии по техническим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация: Джизакский политехнический институт

Защита диссертации состоится 5 января 2026 г. в 11:00 часов на заседании Научного совета PhD.15/31.08.2022.Т.73.01 при Ташкентском государственном транспортном университете. Адрес: 100167, г. Ташкент, ул. Темирийулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного транспортного университета (регистрационный номер – 300). Адрес: 100167, г.Ташкент, ул. Темирийулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-05-66.

Автореферат диссертации разослан 22 декабря 2025 года.
(реестр протокола рассылки №75 от 22 декабря 2025 года).



Ж.Ф. Курбанов
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

Ш.М. Суюнбаев
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

М.Х. Расулов
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней, к.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое внимание уделяется развитию научно-методических основ организации контейнерных перевозок с учетом разработки тарификации и общей технологии. Учитывая, что 60% от общего объема транспортных услуг, 40% грузооборота, 98% перевозимых грузов приходится на наземный транспорт, а доля транспортно-складской сети в ВВП составляет около 6% ¹, возникает необходимость применения инновационных технологий, обеспечивающих взаимосвязь железнодорожного и автомобильного транспорта. В связи с этим особое внимание уделяется дальнейшему укреплению международных транспортных связей с мировыми рынками путем организации и развития контейнерных перевозок при эффективном использовании имеющихся недостатков автомобильного транспорта с использованием уникальных возможностей железной дороги.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на решение таких задач, как применение новых технологий, обеспечивающих взаимодействие различных видов транспорта, определение перспективных маршрутов, планирование грузоперевозок по мультимодальным направлениям, развитие перевозок на основе сервисных возможностей транспорта, эффективное использование пропускной способности станций, проектирование комплексов грузового пространства и новых терминалов, благоприятных для рынка логистических услуг. В связи с этим приоритетными являются исследования по применению контейнерных перевозок на железнодорожном транспорте как наилучшего способа решения существующих проблем автомобильного и железнодорожного транспорта. При этом одной из актуальных задач считается применение инновационных технологий для развития транспортной отрасли, в частности дальнейшее увеличение грузооборота железнодорожного транспорта за счёт мультимодальных перевозок и организация доставки грузов «от двери до двери» без перегрузок, повреждений, экологически безопасно и своевременно.

В нашей республике проводится ряд работ по улучшению железнодорожной инфраструктуры, увеличению грузопотоков и доставке их на мировой рынок без изменения качества грузов за счет использования новых современных технологий грузоперевозок. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены важные цели, такие как «Развитие единой транспортной системы во взаимосвязи со всеми видами транспорта ..., развитие рынка транспортных и логистических услуг и инфраструктуры ..., расширение «зеленых коридоров» и транзитных возможностей в транспортной системе ..., ... поднятие на высокий уровень тесного сотрудничества в области безопасности, торгово-экономической, водной,

¹ <https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/18273-transport-xizmatlari-umumiy-hajmida-avtomobil-transporti-xizmatlarining-ulushi-qancha-3>

